

NUTQIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALARNING KO'RUV, ESHITUV IDROKINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Dilmurodova Ferangiz Umid qizi

Abdulla Qodiriy nomli Jizzax davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti

Maxsus Pedagogika: logopediya yo'nalishi 3-kurs 515.22-guruh talabasi

dilmurodovaferangiz24@gmail.com

+998507513080

Anatatsiya: Ushbu maqolada nutqiy kamchiliklarga ega bolalarning ko'ruv va eshituv idroki qanday shakllanishi, ularda bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari va cheklovlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida bunday bolalarning atrof-muhitni idrok etish usullari, eshitish va ko'rish orqali ma'lumotni qabul qilish darajasi, shuningdek, ularda sezgi organlari kompensator imkoniyatlarining rivojlanish xususiyatlari o'rganiladi. Maqolada eshitish qobiliyati pasaygan yoki butunlay yo'qolgan bolalar eshituv axborotini qanday qabul qilishi, bu jarayonda vizual idrokning qanchalik muhim ekani muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Nutqiy kamchiliklar, ko'ruv va eshituv idroki, vizual idrok, multisensor idrok, kompensator mexanizmlar, karlik, semantik tahlil, kommunikativ rivojlanish, pedagogik texnologiyalar, vizual va kinestetik metodlar, peyropastiklik.

Kirish

Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning ko'ruv va eshituv idroki xususiyatlarini o'rganishda bir qator olimlar muhim hissa qo'shgan. Masalan, L.V. Zankov va I.M. Solovyov eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'ruv sezgisi va idroki eshituvchi bolalar darajasida bo'lishini tadqiq qilganlar. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, eshitish qobiliyati zaif bolalarda ko'ruv sezgisi va idroki faollashadi, bu esa atrof-muhitni anglashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, K.I. Veresotskiy eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'ruv sezgisi va idrokini faollashtirish haqida ma'lumot bergan. U eshitish qobiliyati yo'qolgan bolalarda ko'ruv analizatori atrof-dagi olamni anglashda asosiy ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan. A.V. Neyman eshituv idrokining darajasiga ko'ra 4 guruhga tasniflaydi. Bu quyidagi jadvalda o'z aksini topgan. 1-guruhga tovush tebranishlarini 128 dan 256 Gs ga qabul qiluvchi bolalar jamlangan. 2-guruhga 256 dan 512 Gs dan tovush tebranishlarini qabul qiluvchi, 3-guruhga 512 dan 1024 Gs gacha, 4-guruhga 1024 dan 2048 GS gacha tovush tebranishlarini qabul qilgan bolalar tasniflangan. 3-4 guruhga taaluqli bolalar eshituv idrokini ma'lum darajada balandroq bo'lgani uchun ta'lim amaliyotida qo'llash mumkin. Bu eshitishda nuqsoni bo'lgan bolani nutqiy yaxshi egallashi, talaffuzini tushunarli bo'lishiga yordam beradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida pedagogik jarayonda eshituv qoldig'idan foydalanish imkonini beruvchi tovush kuchaytiruvchi apparatlar bilan jihozlangan maxsus eshituv xonalari mavjud bo'ladi. Tadqiqotlar natijalari ko'rsatishicha, eshituv qoldig'i mavjud bolalar nutqining umumiy ritmi, so'zli va mantiqiy

o'rg'ularni oson egallaydilar, bu ular nutqini tushunarli va yaxlit bo'lishga sabab bo'ladi.¹ Davomiy mashg'ulotlar mashqlar jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idroki faollashtiriladi. Bunda eshituv idrokining rivojlanishi anotomo-fiziologik mexanizmining tiklanishi evaziga emas, balki eshituv idrokini faollash yo'li bilan amalga oshadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolada eshituv sezgisi va idrokini yo'qolishi sababli ko'ruv sezgisi va idroki asosiy o'rin tuta boshlaydi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning ko'ruv analizatori atrofdagi olamni anglashda asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Eshituv sezgisini yo'qotish bilan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'ruv sezgisi faollashadi, o'tkirlanadi. Ko'ruv idrokidan tashqari, anglash jarayonida hidlash va xarakat sezgilari ham muhim o'ringa egadir. I.M.Solovyov va boshqa olimlar eshituvning yo'qolishini nafaqat artikulyatsion apparat sezgisi, balki nafas olish apparatining xarakat sezgisiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.² Chunonchi, mimika, daktilologiya kabi nutq shakllari harkat va ko'ruv sezgilari asosida shakllanadi. Teri sezgilari taktil va temperatura sezgilarini qamrab oladi. Ular birligi premet, uning shakli, kattaligini ifodalovchi materialni anglash imkonini beradi. Bu sezgilar reseptorlari bormoq uchlarida, til uchida joylashgan bo'ladi. Sezgilar faol faoliyatni talab etadi va reseptorlarni ta'sirlovchilar bilan kontakti davomida yuzaga keladi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan korreksion ish tizimi shartli ravishda 3 davrga bo'linadi. Ularning har birining mazmuni va xajmi jixatidan farq qilgan xolda bir-biriga bog'liqdir. Korreksion logopedik ishning oldingi davri keyingi davrdagi ish mazmunini o'zlashtirib olishga bolalarni tayyorlaydi. Tayyorlov davrda olib boriladigan ishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: artikulyatsion apparat xarakatchanligini rivojlantirish, to'g'ri talaffuz qilinadigan tovushlarni aniqlash, tovushlarni nutqqa qo'yish, eshituv idrokini rivojlantirish, tovushlar differensiyasi ustida ishlash, so'z va bo'g'in ichidan tovushni ajratish. Nutqning tovush tomonining shakllanishida faqatgina artikulyator motorikaning efferent zvenosining shakllanganligi emas, balki nutqiy sezgilar- kinesteziyalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.³ N.I Jinkin qaytish reaksiyasining bo'lmasligi nutqiy organlar xarakati mashqlari uchun tajriba to'planishini to'xtadi deb ta'kidlagan, qaytish reaksiyalarining (kinesteziya) kuchayishi nutqni o'zlashtirishni tezlashtiradi va engillashtiradi. Artikulyatsion apparat xarakatchanligini va to'g'ri artikulyatsiyani tarbiyalash ishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: statik va dinamik mashqlar, artikulyator apparat xarakatchanlik kuchini, xarakatlar aniqligini rivojlantirish, nutq apparat muskullaridagi taranglikni yo'qotish, xarakatlarning me'yoriy tempini tarbiyalash. Korreksion ta'limning birinchi davridagi vazifalardan biri tovushlarni nutqqa qo'yish, bolalarda buzilgan artikulyatsion tizimlarni korreksiyalashga yo'naltirilgan. Tovushlarni nutqqa qo'yish individual mashg'ulot davomida, har bir bolaga 10 – 15 daqiqa ajratilgan xolda olib boriladi. Xar bir aniq xolatda tovushlarni nutqqa qo'yish usullari tanlanadi.

Fonematik idrokni rivojlantirish ishlari tovush analizini shakllantirish bilan o'zaro bog'liq xolda olib boriladi. Fonematik idrokni rivojlantirish ishlarida quyidagi mashqlardan foydalaniladi: nutqiy bo'lmagan tovushlarni ajratish; tovushlar qatoridan ma'lum tovushlarni ajratish (akustik va artikulyatsion belgilari o'zaro yaqin bo'ladi); so'z tarkibidan ma'lum tovushni ajratish (tovush tarkibi jixatidan yaqin va uzoq bo'lgan tovushlar); berilgan tovushga so'z o'ylab topish; bitta tovush bilan farq qiluvchi bo'g'inlar qatorini qaytarish; berilgan ma'lum tovushga rasm tanlash; nutqta to'g'ri talaffuz qilinadigan so'zlardan o'zlashtirilgan tovushlarni mustaxkamlash; so'z tarkibidagi aloxida tovushlarni eshita bilish. Ta'limiy mashg'ulotlarni o'yin ko'rinishida o'tkazish tavsiya etiladi. Xar bir

¹ Fayziyeva U.Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994.-23.b.

² Alimxo'jayeva F.J. Zaif eshituvchi bolalar eshitish qobiliyatini rivojlantirishda didaktik materiallardan foydalanish. P.f.n. diss...avtoref. –M., 1992.-1-b.

³ Cyberleninka.ru

o‘yin boshqa vazifalarni ya‘ni; so‘zlar, gaplar va mustaqil nutqda tovushlarini to‘g‘ri talaffuzini mustahkamlashni ko‘zlagan xolda o‘tkaziladi. O‘yinlar nutqda tovushlarni mustahkamlash va aniqlash, fonematik idrokni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mashg‘ulot davomida “Topchi nimani ovozi”, “Ovoz qayerdan kelyapti”, “So‘zdagi tovushni top”, “Kim ko‘proq so‘z topadi”, “Rasmlarni eslab qol” kabi o‘yinlardan foydalanish tavsiya etiladi. Aniq kinestetik va eshitish sezgilariga tayangan holda olib borilgan tovush analizi va sinteziga oid mashqlar o‘z navbatida nutq tovushlarini o‘zlashtirishga, o‘z talaffuzi ustida mustaqil nazorat ko‘nikmalarini tarbiyalashga, disgrafiya va disleksiyani oldini olishga yordam beradi. Korreksion ta‘limning so‘nggi davrining maqsadi nutqiy muloqot sharoitida fonematik idrok va to‘g‘ri tovush talaffuzi ko‘nikmalarini mustahkamlashdir. Korreksion ta‘limning uchunchi davrida bolalarda tovush analizi malakalarini shakllantirishga oid korreksion ishlar davom ettiriladi. Bunda ish xarakatning quyidagi algoritmidan foydalaniladi: so‘zdagi tovushlarni baland ovozda takrorlab, to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘zdagi har bir tovushni eshitish va uni qo‘shni tovushdan ajrata bilish, so‘zdagi tovushlarni navbat bilan aytish.

Nogironlarni reabilitatsiya qilishning maqsadi nogironlarga to‘laqonli turmush kechirish hamda o‘z huquqlari va potentsial imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish imkonini beruvchi ijtimoiy maqomini, o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatishga va kasbiy faoliyatning har xil turlariga doir qobiliyatlarini tiklashdan iboratdir deb ko‘rsatilgan. («O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi qonunning 3-bob. Nogironlarni reabilitatsiya qilish, 12-modda.

XULOSA

Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar bilan ishlashda an‘anaviy usullardan voz kechib, ularning individual xususiyatlarini hisobga oladigan innovatsion yondashuvlarni joriy qilish zarur. . Nutqiy kamchiligi bo‘lgan bolalar bilan ishlashda logopedik mashg‘ulotlarni erta bosqichda boshlash, fonematik idrokni rivojlantirish va nutq terapiyasini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish kerak. Masalan, audiovizual stimullar, sensor xonalar va virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish samarali bo‘lishi mumkin.

Eshitish qobiliyati zaif yoki yo‘q bolalarda ko‘ruv idroki kuchliroq bo‘lganligi sababli, o‘qitish jarayonida vizual materiallar, infografikalar, gestikulyatsiya va mimika kabi vositalardan keng foydalanish kerak. Shuningdek, multisensor o‘yinlar, interaktiv texnologiyalar va maxsus moslashtirilgan darsliklardan foydalanish ularning bilim olish jarayonini samarali qiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Fayziyeva U.Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o‘rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994.-23.b.
2. Alimxo‘jayeva F.J. Zaif eshituvchi bolalar eshitish qobiliyatini rivojlantirishda
3. didaktik materiallardan foydalanish. P.f.n. diss...avtoref. –M., 1992.-12.b
4. Абелева И.Ю. Речь о речи: коммуникативная система человека.М.: 2004.
5. Ауурова М.Ю. Logopediya. Faylasuflar milliy jamiyati. – T.: 2017.
6. Логопедия / Под ред. Волкова Л.С -М.: Просвещение,1993.
7. Методы обследования речи детей: Пособие по диагностике речевых нарушений / Под общ. ред. Г.В. Чиркиной. - М.: 2003.
8. Филичёва Т.Б. Особенности формирования речи детей дошкольного возраста. – М.: 2000

9. Жинкин. Н.И. Речь как проводник информации. — М.: Наука,
10. Komarov K.V. Metodika obucheniya slaboslishashix detey gramote. –М.: Prosveshenie, 1990.
11. Fayziyeva U. Maktabgacha yoshdagi eshituvida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi.– Toshkent: Ilm ziyo, 2006.